



## MUALLIF “MEN”NING PUBLITSISTIKADAGI ROLI

**Fayzullayeva Zulfiya Sayidovna**

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti  
Media nazariyasi va amaliyoti  
kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiyotshunoslikning janrlaridan bo'lmish publitsistikaning jurnalistika nazariyasida ilmiy asoslanishi, ushbu janrda “Muallif obrazi” kategoriyasining rivojlanish omillari va ahamiyati, mazkur kategoriyaning qayta anglanishi, aks ettirilayotgan obyekt baholanishi kabi masalalar o'rganilgan. Shuningdek, Saydi Umirov qalamiga mansub publitsistik maqolalar orqali ularning amalda namoyon bo'lishi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** jurnalistika, publitsistika, ijodiy jarayon, muallif obrazi, muallif pozitsiyasi, ijodiy individuallik, matbuot, ma'naviyat.

**Аннотация:** в данной статье исследуются такие вопросы, как научное обоснование публицистики в теории журналистики как жанр литературоведения, факторы и значение развития категории “образ автора” в этом жанре, переосмысление этой категории, а также оценка отражаемого объекта. Также были проанализированы их проявление на практике через публицистические статьи, принадлежащие перу Сайди Умирова.

**Ключевые слова:** журналистика, публицистика, творческий процесс, образ автора, позиция автора, творческая индивидуальность, пресса, духовность.

**Abstract:** This article explores such issues as the scientific justification of publicism in the theory of journalism, the development factors of the “author's image” category in this genre, the re-realization of this category, and the assessment of the object being reflected. Their manifestation in practice through Saydi Umirov's journalistic articles was also analysed.

**Key words:** journalism, publicism, creative process, author's image, author's point of view, creative individuality, press, spirituality.

Adabiyotshunoslikda yetakchi bo'lgan “Muallif obrazi” kategoriyasi jurnalistika nazariyasida ham ilmiy jihatdan asoslangan. Bu o'rinda mazkur kategoriya qayta anglanishi, aks ettirilayotgan obyekt baholanishini nazarda tutadi, shu bois ushbu holatda yashirin yoki ochiq konseptual obrasiz barcha real voqea-hodisalarni aks ettirib va tahlil etib bo'lmaydi.

Agar sobiq ittifoq davrida publitsistik matnda muallif asosan xolis hikoyachi bo'lgan bo'lsa, bugun jurnalist nuqtayi nazari, pozitsiyasi, shaxsiy individualligi yanada yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Muallif va suhbatdosh o'rtasida matn orqali o'ziga xos muloqot yaratiladiki, uning konstruktiv belgilaridan biri sifatida muallif





obrazi namoyon bo'ladi. Mana shu o'zgarishlarni inobatga olgan holda, publitsistik janr asarlarida muallif "men"ning roli mavzusi ko'rib chiqilishi dolzarb hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, "muallif obrazi" atamasini ilmiy aylanmaga akademik V.V.Vinogradov olib kirdi, ushbu kategoriyani u badiiy asarlarni tahlil qilish chog'ida mufassal o'rganib chiqdi. Shu bilan birga, bu muammoni V.M. Jirmunskiy, M.M. Baxtin, YU.M. Tinyanovlar ham tadqiq etishgan.

Publitsistika janrida muallif obrazini V.I.Zdorovega, I.L.Mixaylin, A.P.Koval, G.Ya.Solganik, E.P.Pochkay, N.S.Valgina va boshqa tadqiqotchilar bir oz boshqacha talqin etadilar.

Badiiy adabiyot bo'yicha nazariy tadqiqotlarda muallif "men"i san'at vositalari va san'at qonunlari asosida tashkillashtiriladigan hamda obyektlashtiriladigan muallifning shaxsiyati sifatida belgilanadi (muallif tomonidan ongning u yoki bu darajada ishtiroki ta'minlangan holda).

Boshqacha aytganda, V.Shklovskiy topib aytganidek, muallif obrazi – bu muallif o'zi haqida aytmoqchi bo'lgani emas, balki uning ijodi natijalarini o'rgana turib u haqda bilib olganlarimizdir [1].

Ko'pchilik tadqiqotchilar ta'kidlashicha, muallif obrazi – bu murakkab dinamik tuzilma bo'lib, butun publitsistika jarayoni bilan uzviy bog'liq, u chuqur dialektikasi bilan ajralib turadi va asarda uning estetik va g'oyaviy boyligi tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. "Agar yozuvchining o'zi shaxs bo'lmasa, u yaratgan asarlar ham biror qiymatga ega bo'lmaydi. Umr mazmuni – o'zlikni anglab yashash. Ma'rifatli insongina o'zini anglab yashashga qodir", – degan edi ustozimiz Mahmud Sa'diy. [2]

So'nggi yillarda muallif tomonidan o'zi fikr-mulohazalari, baholari, nuqtayi nazarini ochiq ifoda etishi tendensiyasi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Muallif o'zlikni anglash, ijodiy individuallik xususiyatlarini erkin ifoda etmoqda. Aynan shunday mualliflik kechinmalarining o'zaro aloqadorligi esa muallif obrazini shakllantiradi.

Bunga o'zbek publitsistlari ijodi mahsulidan, xususan, taniqli publitsist Saydi Umirov ijodidan ko'plab misollar keltirish mumkin. Uning har bir publitsistik maqolasida, ocherkida, essesda atrofni kuzatish, ma'lumotlarni to'plash, taqqoslash va albatta muallif sifatida tahlil qilish, fikr-mulohazalarini bildirish borasida katta mahorat maktabi yaratilganiga guvoh bo'lamiz. S.Umirovning faol fuqarolik pozitsiyasidan turib yozgan ijtimoiy, tahliliy maqolalari juda ko'p. Misol uchun,





“Da’vatkor, daldakor so‘z” maqolasida mustaqillik yillaridagi o‘zbek jurnalistikasi, publitsistikasining muammolari, yutuqlari haqida u ham tadqiqotchi olim, ham publitsist sifatida o‘z xulosalarini o‘quvchi hukmiga havola etgan. Publitsist zukko nazar, kuyunchaklik bilan yangicha ta’riflar, yangicha so‘zlar qo‘llaydi. Bu esa maqolaning ta’sirchanligini, xalqchilligini oshirgan. Jumladan, “Jurnalistika, publitsistika o‘zaro chambarchas bog‘liq, egizak, et-tirnoq sohalar bo‘lib, ularning mushtarak va farqli jihatlarini tayin etmoq joiz. Jurnalistika qamrov doirasi keng soha, ko‘proq yoyiq (gorizontal) o‘lchov, son bilan o‘lchansa, publitsistika tik (vertikal) o‘lchov, sifat bilan o‘lchanadi. Bu qo‘sh sohani past-baland tizmalardan iborat tog‘ deb tasavvur etsak, publitsistika uning baland cho‘qqilaridan. Cho‘qqiga esa birdan chiqish, zabt etish qiyin. Unga jurnalistika pillapoyalaridan birin-ketin oshib, mashaqqat chekib, tajriba, mahorat to‘plab yetiladi” [3].

Anglaganingizdek, olim, publitsist Saydi Umirov ijodiy jarayonni kuzatish bilan birga publitsistikaning bugungi yutuqlari va kamchiliklari haqida o‘zining xolis fikrlarini bildiryapti. “OAVdagi yangiliklar, yangi nafaslar, yangi ijodiy ishlarni kuzatib, mualliflik pozitsiyasini bildiradi, ya’ni bu davr publitsistikasida yurtimizning iqtisodiy, ijtimoiy nochor ahvolga tushib qolgani, azaliy qadriyatlarining qadsizlangani, tilimizga, dinimizga o‘gay munosabat, Orol, Orolbo‘yi fojiasi va boshqa to‘planib qolgan og‘riqli muammolar maqola va suhbatlar, nutq va ma’ruzalar, eshittirish va ko‘rsatuvlarda o‘jar dalil, misollar bilan dadil, ro‘y-rost aytila, yozila boshladi, nohaq qoralanib kelgan jadid mutafakkirlarning millat taqdiri uchun kuyinish-koyinishlari ko‘p eslandi. Rost so‘zga, oshkora fikrga qiziqish, ehtiyoj, zarurat zo‘raydi” [4].

Publitsist achchiq bo‘lsa-da, haqiqatning matbuot sahifalarida aks etayotganini e’tirof etadi. Bu o‘rinda Saydi Umirov oddiy hikoyachi emas, muallif sifatida fikrini bildiryapti. Ularning maqolalarida dadil fikrni, dadil tahlillarni, mushohadani ko‘ramiz. Chunonchi, shu maqolasida “Publitsistikaning kuchi, ta’siri ona tiliga davlat tili maqomi berish uchun kurash qizg‘in kechgan kezlarda ayniqsa bilindi. Olim va arboblardan, adib va jurnalistlardan, turli soha kuyunchak mutaxassislarining o‘tkir, og‘riqli maqola, suhbatlari, til komissiyasiga kelgan besh mingdan ortiq xat, takliflar tilimiz taqdiri uchun qayg‘urish qanchalik kuchli bo‘lgani dalolati” deya kuyinib, quvonib tilimizning kelajagiga umid bog‘laydi. [5]





Ustoz publitsistikada xuddi dengizdagi baliqdek suzadi. Maza qilib ishlaydi, izlanadi, gazeta va jurnallarda, kitoblarda chop etilgan publitsistik maqolalarni qoldirmasdan o'qiydi. Matbuotdagi chiqishlarni muntazam kuzatib boradi. Shu bois u kishi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida ham publitsistika shu'basining eksperti hisoblanadi. Publitsistlar ijodini, yozgan maqolalarini tahlil qilganda shunchaki yaxshi yoki yomon degan xulosani bermasdan, izchil o'rganadi. Publitsistikada mavzu ko'tarish, muammo qo'yish, faktdan foydalanishdan tortib, dalillash, badiiy vositalardan foydalanish, so'zga bo'lgan munosabat kabi biror bir jihat publitsistning e'tiboridan chetda qolmaydi. [6]

Saydi Umirovning yana bir "Ma'naviyat chorrahasidagi o'ylar" maqolasiga e'tibor qaratsak. Ma'naviyati kuchli davlatni yengib bo'lmaydi. Mustaqillik yillarida eng ko'p e'tibor shu sohaga qaratildi. Ma'naviyat – bamisoli baquvvat, ko'rkam chinor. Yuzada ko'kka qancha bo'y cho'zib, tanasi yo'g'on tortib, sershox, sernovda bo'lib o'ssa, ildizlari zamin bag'riga shuncha chuqur kirib, tomir otib, tarmoqlanib ketadi. Va u qamrovi benihoya keng, teran tushuncha bo'lib, shu qadar ko'p fazilat, xususiyatlarni bag'riga singdiradiki, hammasini sanab adog'iga yetish qiyin: vatanparvarlik, insonparvarlik, fidoyilik, zahmat, mehr-oqibat, sadoqat, til, din, imon-e'tiqod, mafkura, odob, axloq, yaxshilik, saxovat, bolajonlik, iroda, sabr-bardosh, adabiyot, san'at, matbuot, iste'dod, hunar... Hamkasb qadrdonlarning bir davrasida "M" harfining o'zi bilangina boshlanuvchi, ma'naviyatga bevosita, bilvosita daxldor fazilatli so'z-iboralarni yodimizga kelgancha sanab, marjondek tizib chiqdik: madaniyat, ma'rifat, maktab, madrasa, muallim, murabbiy, mehnat, matonat, mas'uliyat, mehr, muhabbat, muruvvat, mehmondo'stlik, mazmun, mohiyat, muqaddas, muborak, me'yor, muvofiqlik, maqbul, manzur, malaka, mukammal, mahorat, mumtoz musiqa, muhtasham minora... (noxush, aksilma'naviy ma'no tashuvchi so'z-iboralarni sanashdan tiyildik). Qarang, birgina harf bilan boshlanadigan, ma'naviyatga yaqin, aloqador kalom, tushunchalar qanchadan qancha. Alifboning esa harflari ko'p.

E'tibor bersangiz, keltirilgan so'z-tushunchalarning bari mantiqan bog'liq, biri birini taqozo etadigan, to'ldiradigan, boyitadigan: madaniyatli odam – ma'rifatli odam, ma'rifatli – maktab, madrasa ko'rgan, kasbi-hunariga mehri-muhabbati baland, mas'uliyatni teran anglagan, betinim mehnat qilgan, mashaqqat chekkan, matonatli,





irodali, iste'dodli insongina ma'naviyatning yuksak cho'qqisi bo'lmish shedevr asarini yarata oladi. [7]

### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:**

1. Koval A.P., Kontorchuk G.K. Kompozitsionnaya rol obraza avtora.
2. Mahmud Sa'diy. Kun ko'rish kerak emas, yashash kerak. «Yoshlik» jurnali, 2019-yil, 6-son.
3. Umirov Saydi. Sehrlı va mehrli so'z (Dav. Publitsistika. Qahramon.) / S. Umırov. – T.: “BODOMZOR INVEST” nashriyoti, 2017. – 90-bet.
4. Toshpo'latova Nazira. “SAYDI UMIROV PUBLITSISTIKASI”. “O'zbekistonda xorijiy tillar” ilmiy-metodik elektron jurnal [www.journal.fledu.uz](http://www.journal.fledu.uz) No1/2018. 169.
5. Umırov Saydi. Sehrlı va mehrli so'z (Dav. Publitsistika. Qahramon.) / S. Umırov. – T.: “BODOMZOR INVEST” nashriyoti, 2017. – 178-bet.

